HUDUDLARDA YASHIL QURILISHNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Abdusamatov B.K
Sam DAQU "Biznesni boshqarish" kafedrasi dotsenti
ORCID: 0009-0001-3524-7949
https://doi.org/10.5281/zenodo.15270112

Annotatsiya. *Bugungi kunda aholi yashaydigan hududlarda infrastrukturani yaxshilash uchun birinchi navbatda qurilish faoliyatini sifatli olib borish asosida, uzoq muddatli hayot kechirish darajasini ta'minlovchi muhitni shakllantirishning iqtisodiy strategiyasini yaratishdir. Bu strategiyani ta'minlashning samarali vositalaridan biri "yashil" qurilishni yanada rivojlantirishdir. Bu tadqiqotning asosiy maqsadi ham "yashil" qurilishni rivojlantirish yo'llarini aniqlash va ularning echimlarini qo'llash bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.*

Kalit so'zlar: *yashil texnologiya, yashil qurilish, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, yashil binolar, "yashil makon", "yashil" iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, yashil hududlar, yashil standartlar*

Kirish. Hozirgi vaqtda hududlarda iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish munosabati bilan zamonaviy ekologik va energiya tejamkor texnologiyalardan foydalangan holda "yashil" binolarni qurish katta ahamiyatga ega bo'lib, hududlarda insonning yanada yaxshi yashashi bo'yicha ehtiyojlarini qondiradigan binolarni qurish asosiy vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Aksariyat hollarda zamonaviy "yashil" qurilishlar uchun transport infratuzilmasi muammosi, ifloslangan daryolar va yaxshi tashkil etilmagan chiqindi joylari, biologik xilma - xillikning pastligi, uglevodorod yoqilg'ilarining yonishi asosiy dolzarb bo'lib turgan echimini kutayotgan masalaga aylanmoqda.

Yashil konstruktsiya O'zbekiston bozoriga asta – sekinlik bilan kirib kelmoqda, 2018 - yilda birinchi LEED sertifikatiga ega "Parkent Rlaza" turar - joy majmuasi barpo etila boshlangan bo'lsa, bugungi kunda respublikaning iqtisodiyotni "yashil" o'zgartirish bo'yicha islohotlar va dasturlar bo'yicha faol olib borilayotgan Respublika Prezidentining Farmon va Qarorlari bu jarayonni ham tezlashtirishga asos bo'lmoqda.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 2-dekabrda tasdiqlangan "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori [1] muhim dasturiy amal hisoblanadi.

Xususan, 2023 yilda topshiriladigan 2,5 mingta ko'p qavatli uylar hududining 30 foizida, 38 ta "Yangi O'zbekiston" massivlarining har birida kamida 1 gektardan yashil xiyobonlar tashkil qilinishi belgilandi" deb ta'kidlagandi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yashil qurilishning maqsadi – binolarning sifatini va ularning ichki muhiti qulayligini saqlab qolish yoki yaxshilash bilan birga, energiya va moddiy resurslar sarfini tejash (kamaytirish)dir.

Yashil qurilish asosan “yashil iqtisodiyot” bilan chambarchas bog’langan bo’lib, “yashil iqtisodiyot” keng qamrovli tushunchalarga ega, A.Vaxabovning fikricha, “yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanish o’rnini bosa olmaydi va barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi muhim mezon hisoblanadi. Barqaror rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o’z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi kerakki, keyingi avlodlar ulardan kam bo’lmagan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo’lishlari lozimligida namoyon bo’ladi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o’zaro bog’liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi [3].

A.V.Neverov, T.P.Vodopyanova esa “Yashil qurilish”da ham “Yashil” iqtisodiyotga o’tish jarayoni kabi davlat inson kapitali, tabiiy kapital, ijtimoiy kapital, siyosiy kapital va moliyaviy kapitallarni muvofiqlashtirib foydalanish” zarurligini ta’kidlaydilar [4].

“Yashil” bino - bu shahar va atrof-muhitning o’zaro ta’siriga qaratilgan binolarni qurish va ishlatish jarayoni. “Yashil” binolar atrof - muhitga kamroq zarar etkazadi, bu esa barqaror shahar rivojlanishiga hissa qo’shadi. “Yashil” qurilishning uchta asosiy tushunchasi quyidagilarda namoyon bo’lishi mumkin degan fikrdamiz:

- resurslarni tejash;
- binoning qulayligi uchun talabning oshishi;
- binonig iste’molchilarga nisbatan hech qanaqa ta’sirning yo’qligi.

“Yashil” qurilish bo’yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko’rsatmoqdaki, yashil devorlar mavjudligi binoning maydoni (3250 m^2) bilan solishtirganda yashil maydonning ko’proq qoplanishiga (4765 m^2), yuqori energiya sarfini va umumiy energiya xarajatlarini kamaytirishga, atrofdagi mikroiqlimni o’zgartirishga va havo sifatini yaxshilashga, estetik jozibadorlikni oshirishga olib keldi [5].

O.A.Lapina va A.P.Lapinalar energiya samaradorligini yashil qurilish elementi sifatida belgilaydi va Rossiyada yashil qurilishni rivojlantirish uchun bunday cheklovchi omilni malakali kadrlarning etishmasligi va qurilish ishtirokchilari orasida professional tajribaning etishmasligi sifatida deb ta’kidlaydi [6].

Mualliflar N.H. Julayhe va M.M.Rahmonlar esa, Osiyo shaharlaridagi turar-joy binolarida mavjud an’anaviy qurilmalar o’rniga zamonaviy va energiyani tejovchi elektr jihozlaridan foydalanilsa, energiyani tejash va energiya sarfini kamaytirishga qanday erishish mumkinligini ko’rsatishgan [7].

Adabiyotlarni tahlil qilish asosida hududlarda “yashil” qurilishni shakllantirish va me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, yashil standartlarga muvofiq binolar qurish, muhimligini anglatmoqda.

Tadqiqot maqsadi: bugungi kunda energiya samaradorligi pastligining saqlanib qolishi va yashil innovatsion texnologiyalarni joriy etishning sekinlashishi, yashil qurilish tamoyillarini keng targ’ib qilish uchun rag’batlantirish va samarali mexanizmlarning kamligi hamda hududlarda yashil qurilishni amalga oshirishdagi paydo bo’layotgan muammolarni aniqlash va bu muammolarni bartaraf qilish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Taxlil va natijalar: Yashil qurilish standartlarini ishlab chiqish va joriy qilish biznesni, innovatsion texnologiyalarni, iqtisodiyotni rag’batlantiradi, jamiyat hayotining sifatini va atrof-muhit holatini yaxshilaydi. Ular aqlli iqtisodiyot uchun vosita, ya’ni barcha bosqichlarda pulni tejaydi va dunyo tendentsiyasiga qo’shilishga hissa qo’shadi.

Yashil standartlar qurilishga barqaror yondashuvni tartibga solish va binolarning asl tamoyillarga qanchalik mos kelishini baholash uchun mo'ljallangan. Ular bino va inshootlarni an'anaviy loyihalash va qurishdan barqarorga o'tishni tezlashtirish uchun xizmat qiladi. Ushbu turdagi standartlar kelajak avlodlar manfaatlarini va atrof-muhitga salbiy ta'sirni cheklashlarni hisobga olgan holda odamlar uchun xavfsizlik va qulay sog'lom turmush sharoitlarini ta'minlashdan iboratdir bizning fikrimizcha.

Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, 2025 yilga borib jahondagi ekologik toza asbob - uskunalar bozori 4,4 trln. evro (taxminan 6 trln. doll.)ga tenglashadi. Ushbu bozorning har yili o'rtacha 30%ga o'sayotganligi va jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shayotgan hissasi 6-7 %ga qadar ortayotganligi kuzatilmoqda [8].

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hududdlarda "yashil" qurilishni takomillashtirish uchun hali echilmagan muammolar ko'pligini ko'rsatmoqda, demak bu jarayonni rivojlantirish uchun albatta, "yashil" qurilishni rivojlantirish uchun ta'sir etuvchi omillarni o'rganish zaruriyatini taqoza qiladi.

Xulosa va takliflar: Yashil qurilishni izchil va tizimli ravishda amalga oshirish hududning qulay ekologik holatining kerakli ko'rsatkichlariga erishishga yordam beradi.

Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va global ekotizimning yemirilishi xavfi ortib borayotgani bilan, ayniqsa, global qurilish sanoati hozirda o'z kuchini misli ko'rilmagan sinovdan o'tkazmoqda. Hududlarda "yashil" qurilishni amalga oshirishda muammolarni hal qilish bo'yicha takliflar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Hududlarda "yashil" qurilishni amalga oshirishda muammolarni hal qilish bo'yicha ba'zi takliflar

Muammo	Echimlar
Hudud "yashil" qurilishiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish yuqori xarajatlarni talab qilishi	"yashil" qurilishni amalga oshirish uchun imtiyozli kredit va subsidiyalar berish, yashil loyihalarni amalga oshirish uchun davlat tomonidan grantlar ajratish
Me'yoriy – huquqiy bazaning nomukammalligi (aniq ishlab chiqilmaganligi)	qonunchilik darajasida yashil qurilishni qo'llab – quvvatlanishi;
	yashil qurilish uchun davlat dasturini yaratilganligi;
"Yashil" binolar qurilishini rivojlantirish uchun iqtisodiy rag'batlarning kamligi	yashil qurilish loyihalarini amalga oshirishda soliq imtiyozlari va boshqa rag'batlantirishlarni tizimli amalga oshirish;

	energiya tejaydigan ob'ektlarni qurishda buyurtmalar bo'yicha soliq imtiyozlarini joriy qilish
Hududda ko'chmas mulkka bo'lgan talabning past darajadaligi	Aholi uchun yashil texnologiyalardan foydalangan holda qurilgan ko'chmas mulkka egalik qilish uchun qo'shimcha imtiyozlarni joriy etish
	yashil strategiya infratuzilmasini qo'llab-quvvatlaydigan mahalliy moliya institutlari, bank va IT xizmatlarini qo'llab-quvvatlash
Ommaviy axborot vositalari va hokimiyat organlarida yashil qurilishning afzalliklarini ommalashtirishning past darajasi va boshqalar.	Ommaviy axborot vositalarida va davlat hokimiyati va boshqa boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlarida tegishli loyihalar natijalari, ularning foydali tomonlari va iste'molchilar salomatligiga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni jadal sifatli tarzda yoritish.
	Iste'molchilar o'zi qanaqa bino xoxlashayotganligi to'g'risida hududda marketing tadqiqotlari asosida o'rganishlar olib borish
Malakali kadrlarning etishmasligi	Kadrlarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish – kasbiy lavozimlarni o'qitish hamda ishchilar va xizmatchilarni qayta tayyorlash dasturlarini takomillashtirish
	Qurilish kadrlarini tayyorlashda klaster modeli asosida amalga oshirish
Hududda "yashil" qurilish siyosatini amalga oshirish uchun moliyaviy mablag'larning cheklanganligi	hududda byudjetdan tashqari "Yashil" qurilishni rivojlantirish maxsus jamg'armasini ochish
	xalqaro biznes inkubator va akseleratorlari orqali tadbirkorlik faoliyatini transformatsiya qilish va investitsiya jalb qilish
	xalqaro tadbirlar orqali xorijiy yirik kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga ko'maklashish;

Tadqiqotda yashil iqtisodiyot asosida inson salomatligi uchun xavfsiz yashil uylarni qurish vositasi sifatida o'rganib chiqildi. Hududda yashil qurilishni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar har tamonlama o'rganilib, yashil kontseptsiya rivojlantirish va hududlarda ushbu amaliyotni kengaytirishga yordam beruvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Yuqoridagi fikr mulohazalarga nisbatan xulosa qiladigan bo'lsak, "yashil" qurilish atrof – muhit holatini yaxshilash uchun kurashda va ekologik falokatning oldini olishda eng ajoyib echimlardan biri ekanligi ko'rinib qolmoqda. U tabiiy muhitni saqlash va erdagi hayot manbaini yaratishga xizmat qiladi degan fikrdamiz. Keyingi muammo "yashil" qurilishni amalga oshirishda ta'sir etuvchi omillarning ta'sir etish darajasini o'rganishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori PQ-436-sonli Qarori//https: //lex.uz /uz/ docs/6303230.
2. 2."Yashil makon" loyihasi doirasidagi ishlar hamda chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish masalalari bo'yicha videoselektorda Prezident SH.M.Mirziyoev nutqi.29.03.2024 yil.
3. Вахабов А. В., Хажибакиев Ш. Х. Необходимост и приоритетные направления перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – No. Спецвыпуск 4. – С. 3-12.
4. Неверов А.В., Водопянова Т.П. Экономика природоползования. –Минск,2019.–117с.
5. В. Морозова, Т. С. Куницкая, Зеленое строительство. Сметно-договорная работа в строителстве. 2022;
6. Лапина О.А., Лапина А.П. Энергоэффективные конструктивные системы // Инженерный вестник Дона. – 2015. – № 1. Ч.2. – С. 10–16.
7. 7.Julayhe N.H. Rahman, M.M. Greening Existing Buildings in Brunei Darussalam // International Journal Of Integrated Engineering. – 2021. pp. 34–39.
8. 8.https://www.un.org/sustainabledevelopment/biodiversity/.